НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	901
Мирзаев Кулмамат Джанзакович	



ELEKTR UZILISHLARINING HUDUDIIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	906
Oltiboyeva Feruza Ulug'bek qizi	
DAVLAT TRANSPORT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	911
Uktamov Sarvar Atxam o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИНСТРУМЕНТЫ ПОДДЕРЖКИ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В СТРАНАХ ЕС, США И ЯПОНИИ	915
Газизова Эльмира Хамидовна, Мелибаева Гульнора Ачиловна	
SANOATNI HUDUDIIY RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH OMILLARI	921
O'zmanov Ixtiyor Ibragim o'g'li	
SUG'URTA INSTITUTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	926
Sherov Sanjar Radjabovich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI STRATEGIYALAR ASOSIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	932
Umurov Jasurbek Jamil o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	936
Raxmonov Abduxalil Rasulovich	
INKLYUZIV TA'LIM XIZMATLARINING RAQAMLI EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHDA DAVLAT, OTM VA IT INFRATUZILMA INTEGRATSIYASI	940
Maxkamova Kamola	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BUDJETLASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (ENERGETIKA KORXONALARI MISOLIDA)	944
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	950
Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li	
TIKUV-TRIKOTAJ MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRUVCHI KICHIK KORXONALARNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI	956
Abduhamidov Abdurahmon Abdulatif o'g'li	
O'ZBEKISTONDA 2026–2030-YILLARGA MO'LJALLANGAN SOLIQ MA'MURCHILIGI STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	963
Ismailov Timur Atabayevich	
SAVDO LIBERALIZATSIYASINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI TARKIBIGA TA'SIRI	969
Sardorjon Maxmudov Sobirjon ug'li	
MAHALLIY BUDJETLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINING UY XO'JALIKLARI FAROVONLIGI VA HUDUDIIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EMPIRIK TAHLIL QILISH	977
Safarmurodova Marjona To'raqulovna, Ollokulova Feruza Mansurovna	
FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF FINANCIAL SUSTAINABILITY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE OIL AND GAS SECTOR	982
Ergashev Muhibbek Aslamovich	
O'ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA FIN TECH KOMPANIYALARI VA BANKLAR HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI	988
Rajabova Umida Umurzoqovna	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВЫХ ПРЕФЕРЕНЦИЙ И ЛЬГОТ В ОБЕСПЕЧЕНИИ РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ (НА ПРИМЕРЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)	995
Отамуродова Дилдора Абдуқримовна	
THE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON INTERNATIONAL MARKETING: RESHAPING GLOBAL MARKET ENTRY STRATEGIES AND CONSUMER ENGAGEMENT	1001
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Ne'matullyev Bekmirzo Bozorboy o'g'li, Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li	



TARIXIY-MADANIY TURIZM XIZMATLARINI MINTAQADA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH.....	1010
Erkayeva Barno Abduraximovna	
GLOBAL IQTISODIY INTEGRATSIYA SHAROITIDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MENEJMENT YONDASHUVLARINING ROLI: O'ZBEKISTON MISOLIDA	1015
Mahmudova Madinaxon Jumaboy qizi	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УКРЕПЛЕНИЯ ДОХОДНОЙ БАЗЫ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	1020
Т. И. Бобакулов, Г. Ч. Джавлиев	
ECOTOURISM DEVELOPMENT POTENTIAL AND THE ROLE OF GUIDES IN REGIONAL TOURISM GROWTH: EVIDENCE FROM THE NAVOI REGION OF UZBEKISTAN	1024
Axmadova Iroda Muzaffar kizi	
DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND ITS PRIORITY DIRECTIONS.....	1030
Ollokulova Feruza Mansurovna, Guzal Abdimurodova Panjiyevna	
KORRELYATSION - REGRESSION TAHLILNING QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA QO'LLANILISHI AHAMIYATI	1035
Butanova Dilnoza Rustamovna	
MADANIYATLARARO YETAKCHILIK VA LINGVOMADANIY KOMPETENTSIYA BOSHQARUV ISHI SIFATIDA.....	1042
Rahimova Gulnoza	
SANOAT KORXONALARINI YANGI TEXNIKA VA TEXNOLOGIYA BILAN TA'MINLASH JARAYONLARINING HOZIRGI ZAMON HOLATI.....	1052
Akbarova Maloxat Atabekovna	
UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA INNOVATSION RIVOJLANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH.....	1056
Abdukadirova Nilufar Abdaxatovna	
FARG'ONA VILOYATIDA INVESTISIYA SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH BARQAROR IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA	1062
Qo'chqarov Yunusali Sobirjonovich	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL KREDITLASH" TIZIMI: NAZARIYA VA AMALIYOT	1069
Erkinov Farrux Rustam o'g'li	
AKSIZ SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGI TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1075
Nazarova Rushana Ravshan qizi	
MOL-MULK SOLIG'I TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING MOLIVAVIY ASOSLARI	1080
Qodirov Hasan Do'stqobilovich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI IQTISODIY JARAYONLARNI RAQAMLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1084
Matyoqubov Yo'ldoshboy Ergashboy o'g'li	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI SOLIQ VOSITASI ORQALI QISQARTIRISHDA HUKUMATNING ROLI.....	1089
Pirnafasov Sarvar Bardibayevich	
HUDUDNING TURIST JOZIBADORLIGINI IQTISODIY BAHOLASH VA TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY TAMOYILLARI.....	1093
Q.A. Musaxanov	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY BOSHQARUV YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1098
Umarova Nilufar Abdukaxor qizi	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1103
Ulashev Xubbim	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA OBODONLASHTIRISH XIZMATLARINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI.....	1107
Hayitov Jamshid Xolvoyevich, Ibragimova Gulhayo Nuriddin qizi	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI OLIY TA'LIM MUASSASALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	1112
Abdurasulov Sardor To'liqin o'g'li	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TO'LOV QOBILYATI HOLATI TAHLILI	1119
Adilova Zohida Ikromjonovna	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTIONAL OMILLARI VA SAMARADORLIGI	1124
Turdiqulov Farrux Ravshanjon o'g'li, Sadibekova Bibisara Djapparovna	
SANOAT TARMOQLARIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH STRATEGIYALARI	1130
Yaxyayeva Inobat Karimovna	
KICHIK BIZNESDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH.....	1136
Abdullayeva Shaxnoza Esonovna	
EKOTURIZMNING O'ZBEKISTON TURIZM BOZORIDAGI RIVOJLANISH SALOHİYATI.....	1141
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
ISHSIZ VA BAND BO'LMAGAN FUQAROLARNING BANDLIGINI TA'MINLASH VA MEXANIZMLARI	1145
Olimov Bekzod Nariman o'g'li	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA HUDUDIIY RIVOJLANISH VA INVESTITSIYA SIYOSATINING AHAMIYATI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	1149
Kurbanov Aybek Turabayevich	
RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLARDA DAROMADLAR TENGSIZLIGINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	1154
Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi	
MILLIY INNOVATSION TIZIMNI TRANSFORMATSIYALASHNING MOLİYAVIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1162
Azimov Bobir Fattoheevich	
ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING STARTUP DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AMONG THE YOUNG GENERATION	1169
Usmonkhujayeva Nigina G'ofur qizi	
O'ZBEKISTONDA MUQOBIL ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1174
Abdurazzoqov Hojiakbar Alisher o'g'li	
O'ZBEKISTON RAQAMLI BANK XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA ASOSIY TENDENSIYALARI.....	1179
Karimov Odiljon Boqiyevich	
ЗАКОНОМЕРНОСТИ ПОВЕДЕНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ РЫНОЧНОГО СПРОСА.....	1185
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
BUDJET TASHKILOTLARINI SAMARALI BOSHQARISHDA ICHKI AUDITNING ROLI	1188
Karimov Djaxongir Ganiboevich, Nasriev G'olibjon Muxiddinovich	
YAPONIYADA IJTIMOIIY HIMOYA DASTURLARI VA IJTIMOIIY SUG'URTA TIZIMI	1193
Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION MARKETING KONSEPSIYASIGA O'TISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1197
Bobomurodov Qayimjon Homidovich	
ВЛИЯНИЕ ЦЕНОВОЙ КОНКУРЕНЦИИ НА УСТОЙЧИВОСТЬ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	1203
Гойибназарова Нозимахон Хамзаевна	
SUG'URTA TASHKILOTLARI DAROMADLARI VA ULARNING SOLIQQA TORTISH MEXANIZMI.....	1209
Buranova Lola Vaxobovna, Yaxshilikov Murod	
BUDJET MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA RAQAMLASHTIRISH VA JAMOATCHILIK NAZORATINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI	1215
Ro'ziyeva Dilobar Isomjonovna, Muxtorov Muhammadyunus Muhammadyusuf o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РЕГУЛИРОВАНИЯ РЫНКА ТРУДА.....	1222
Камилова Наргиза Абдукажоровна	



SIRKULAR IQTISODIYOTDA KO'P TOMONLAMA MANFAATDOR TOMONLAR HAMKORLIGINING YUTUQLARI.....	1226
Sodiqov Zokir Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA SPORT TURIZMINI RIVOJLANISH HOLATI VA ASOSIY TENDENTSIYALARINING TAHLILI: TOG', SUV, VELO, EXTREMAL SPORT TURIZMLARI MISOLIDA	1233
Kalandarov Jalol Abdujalilovich	
ГЕНДЕРНАЯ ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ И ПОВЕДЕНЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ	1242
Захарова Ирина Борисовна	
QURILISH SANOATI KORXONALARIDA EKOLOGIK BOSHQARUV TIZIMINI JORIY ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1247
Xolov Xamza Tojiddinovich	
INNOVATSION SALOHİYATNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING HUDUDİY SSENARIYLARI: NOMUTANOSIBLIKLA VA PROGNOZLI BAHOLASH	1254
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
IQTISODIYOT TARMOQLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI	1261
Ollokulova Feruza Mansurovna, To'rayeva Xadicha Ro'ziboy qizi	
O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	1264
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПРОЕКТАМИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭЛЕКТРОСЕТЕВОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1270
Тошқулов Сирожиддин Акбаркул угли	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINING TASHKILIY TUZILMASI VA ULARNING FAOLIYATI TAHLILI	1276
Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	
BANKLARDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BANK AKTIVLARI RENTABELLIGINING AHAMIYATI	1283
Xolmatov Azizjon Avazxon o'g'li	
JISMONIY SHAXSLAR YER SOLIG'INI HISOBLASHDA HUDUDIY Koeffitsiyentlarni qo'llashni takomillashtirish.....	1287
Ramazonov Shamil Ulug'bek o'g'li	
ТЕОРЕТИКО-КАТЕГОРИАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ КРИПТОАКТИВОВ В СИСТЕМЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	1291
Иминохунов Абдукохор Абдиваитович, Хакимов Абдурахмон Мухаммад-Али угли	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR MEHNAT BOZORINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLI YECHIMLAR.....	1298
Jumayeva Shaxnoza Quyliyevna	
DIVERSIFIKATSIYALASH DARAJASINI BAHOLASHNING USLUBIY ASOSLARI	1303
Nurova Gulnora Nutfulloyevna	
KRIZIS — BURILISHMI YOKI INQIROZ?	1310
Tojiboyeva D.	
RAG'BATLANTIRISHDA MOTIVATSIYANI YARATISH, QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISHI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1316
Musayeva Shoirazimovna	



RAG'BATLANTIRISHDA MOTIVATSIYANI YARATISH, QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISHI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Musayeva Shoirazimovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori

Email: musaeva_shoira@mail.ru

Orsid kod -0009-0000-9577-6976

Annotatsiya. Mazkur maqolada rag'batlantirish tushunchasi motivatsiyani shakllantirish, xodimlarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlash jarayoni sifatida ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy menejment sharoitida rag'batlantirish faqat moddiy mukofotlar bilan cheklanib qolmay, balki ma'naviy, ijtimoiy va psixologik omillarni ham qamrab olgan murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda rag'batlantirishning motivatsiyaga ta'siri, uning tashkilot samaradorligidagi o'rni hamda amaliy ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy tajriba asosida samarali rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: rag'batlantirish, motivatsiya, inson omili, boshqaruv, xodimlar samaradorligi, rivojlanish, qo'llab-quvvatlash.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the concept of stimulation as a process of shaping motivation, supporting employees, and ensuring their professional and personal development. In modern management, stimulation is no longer limited to material rewards only; it has evolved into a complex system that also encompasses moral, social, and psychological factors. The study highlights the influence of stimulation on motivation, its role in organizational effectiveness, and its practical significance. In addition, proposals are developed to improve effective stimulation mechanisms based on both foreign and local experience.

Key words: stimulation, motivation, human factor, management, employee performance, development, support.

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения анализируется понятие стимулирования как процесса формирования мотивации, поддержки сотрудников и обеспечения их профессионального и личностного развития. В современных условиях управления стимулирование представляет собой сложную систему, которая не ограничивается материальными вознаграждениями, но также охватывает духовные, социальные и психологические факторы. В исследовании раскрываются влияние стимулирования на мотивацию, его роль в повышении эффективности организации, а также практическая значимость. Кроме того, на основе зарубежного и отечественного опыта разработаны предложения по совершенствованию эффективных механизмов стимулирования.

Ключевые слова: стимулирование, мотивация, человеческий фактор, управление, эффективность труда сотрудников, развитие, поддержка.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashkilot va korxonalarning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan inson omiliga, ya'ni xodimlarning ishga bo'lgan munosabati, mas'uliyati va faolligiga bevosita bog'liqdir. Zamonaviy raqobat muhitida texnologiyalar, moliyaviy resurslar va innovatsiyalar muhim ahamiyat kasb etsa-da, aynan inson kapitali tashkilotning asosiy strategik ustunligi sifatida namoyon bo'lmoqda. Xodimlarning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish esa samarali boshqaruv va puxta rag'batlantirish tizimisiz mumkin emas.

Xodimlarning mehnat unumdorligini oshirish, ularni tashkilotning umumiy maqsadlari sari yo'naltirish hamda ish jarayoniga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishda rag'batlantirish muhim boshqaruv vositasi hisoblanadi. Rag'batlantirish faqatgina moddiy mukofotlar yoki ish haqi oshirilishi bilan cheklanib qolmay, balki e'tirof etish, kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va psixologik muhitni yaxshilash



kabi omillarni ham o'z ichiga oladi. Bunday kompleks yondashuv xodimlarda ijobiy motivatsiyani shakllantirib, ularning ishga bo'lgan sadoqatini mustahkamlaydi.

Rag'batlantirish motivatsiyani yaratish, uni qo'llab-quvvatlash va doimiy ravishda rivojlantirish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Dastlabki rag'bat xodimni faoliyatga jalb etsa, uzluksiz va adolatli rag'batlantirish uning motivatsiyasini barqarorlashtiradi hamda kasbiy o'sishga undaydi. Natijada xodimlar nafaqat topshirilgan vazifalarni bajarishga, balki tashabbus ko'rsatishga, ijodiy yondashishga va jamoa manfaatlarini yo'lida faol harakat qilishga intiladi.

Shu sababli zamonaviy menejmentda samarali rag'batlantirish tizimini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Har bir tashkilot o'z faoliyatining xususiyatlari, xodimlar tarkibi va strategik maqsadlarini inobatga olgan holda moslashuvchan va adolatli rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim. Bunday yondashuv tashkilotning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash bilan birga, inson omilining to'liq ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda rag'batlantirish va motivatsiya masalalari boshqaruv hamda psixologiya fanlarining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida keng yoritilgan. Ushbu tushunchalar xodimlarning mehnat faoliyatini samarali tashkil etish, ularning ishga bo'lgan munosabatini shakllantirish va tashkilot natijadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turli davrlarda olimlar motivatsiyaning manbalari, rag'batlantirish mexanizmlari va ularning inson xulq-atvoriga ta'sirini turli nazariy yondashuvlar asosida izohlaganlar.

Jumladan, Abraham Maslow tomonidan ishlab chiqilgan ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasiga ko'ra, inson xatti-harakati ketma-ket joylashgan fiziologik, xavfsizlik, ijtimoiy, hurmat va o'zini namoyon qilish ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan. Ushbu nazariya xodimlarni rag'batlantirishda ularning ehtiyoj darajasini aniqlash va mos boshqaruv mexanizmlarini qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Frederick Herzberg tomonidan ilgari surilgan ikki omilli nazariyada motivatsiyaga ta'sir qiluvchi omillar gigiyenik va motivatsion omillarga ajratiladi. Gigiyenik omillar ish haqi, mehnat sharoiti va xavfsizlik bilan bog'liq bo'lsa, motivatsion omillar e'tirof etish, martaba o'sishi, mas'uliyat va kasbiy rivojlanish bilan bog'liqdir. Mazkur yondashuv xodimlarning ishga bo'lgan qiziqishini oshirishda ma'naviy rag'batlantirishning ahamiyatini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Douglas McGregor tomonidan ishlab chiqilgan X va Y nazariyalari rahbarlarning xodimlarga bo'lgan munosabati motivatsiya jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishini asoslaydi. X nazariyasida xodimlar nazoratga muhtoj deb qaralsa, Y nazariyasida ular tashabbuskor, mas'uliyatli va o'zini rivojlantirishga intiluvchi shaxs sifatida baholanadi. Shu sababli zamonaviy boshqaruvda Y nazariyasiga asoslangan rag'batlantirish usullari samaraliroq deb hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham rag'batlantirish va motivatsiya masalalari bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, Yoqub Abdullayev, R. Ibragimov, A. Saliev, D. Raximova, Sh. Ergashxodjaeva hamda Sh. Musayeva kabi olimlarning tadqiqotlarida inson omili, xodimlarni boshqarish, motivatsiya va rag'batlantirish mexanizmlarining amaliy jihatlari yoritilgan. Ularning ilmiy ishlari milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda zamonaviy rag'batlantirish tizimlarini takomillashtirishga muhim hissa qo'shadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tahliliy (analitik) usuldan foydalanildi. Ushbu usul orqali rag'batlantirish va motivatsiya tushunchalari ilmiy manbalar asosida chuqur o'rganildi hamda ularning mazmun-mohiyati tizimli ravishda tahlil qilindi. Ilmiy adabiyotlar, menejment nazariyalariga oid tadqiqotlar va amaliy qarashlar o'rganilib, rag'batlantirishning motivatsiyani shakllantirish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishdagi o'rni aniqlab berildi.

Tahliliy usul yordamida rag'batlantirishning moddiy va nomoddiy shakllari alohida ko'rib chiqildi hamda ularning xodimlar xulq-atvori va mehnat samaradorligiga ta'siri mantiqiy asosda baholandi. Shuningdek, turli nazariy yondashuvlar o'zaro solishtirilib, rag'batlantirishning tashkilot faoliyatidagi amaliy ahamiyati yoritildi. Mazkur metod rag'batlantirish jarayonining ichki mexanizmlarini ochib berish, nazariy xulosalar chiqarish va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, samarali tashkil etilgan rag'batlantirish tizimi xodimlarning ishga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi, jamoa ichida ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi va tashkilot faoliyati natijadorligini yaxshilaydi. Rag'batlantirish xodimlarni faqatgina mehnat jarayoniga jalb etish bilan cheklanmay, balki ularning kasbiy faolligi, tashabbuskorligi va mas'uliyat darajasini oshiruvchi muhim boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.



Tahlil natijalariga ko'ra, moddiy rag'batlantirish shakllari — ish haqi, mukofotlar, bonuslar va qo'shimcha to'lovlar xodimlarning qisqa muddatli motivatsiyasini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, mehnat natijalariga bog'liq mukofotlar xodimlarda adolat hissini shakllantirib, belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarishga undaydi. Biroq, faqat moddiy rag'batlantirishga tayanish uzoq muddatda kutilgan samarani bermasligi mumkin, chunki vaqt o'tishi bilan moddiy rag'batlar xodimlar uchun odatiy holga aylanadi va ularning motivatsion ta'siri pasayadi.

Nomoddiy rag'batlantirish vositalari esa xodimlarning ichki motivatsiyasini shakllantirish va uni uzoq muddat davomida qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xodimlarning mehnatini e'tirof etish, ularga ishonch bildirish, martaba o'sishi imkoniyatlarini yaratish, malaka oshirish va kasbiy rivojlanish uchun sharoitlar yaratish xodimlarda o'z ishiga nisbatan sadoqat va mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Natijada xodimlar nafaqat moddiy manfaat uchun, balki o'zini namoyon qilish, jamoada o'z o'rnini topish va professional jihatdan o'sish maqsadida ham faoliyat yuritadilar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, moddiy va nomoddiy rag'batlantirish vositalarining uyg'unligi eng yuqori samarani beradi. Agar rag'batlantirish tizimi xodimlarning individual ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda shakllantirilsa, motivatsiya barqaror va uzluksiz bo'ladi. Bunday sharoitda xodimlar tashabbus ko'rsatishga, innovatsion g'oyalar ilgari surishga va jamoaviy maqsadlarga erishishda faol ishtirok etishga intiladilar.

Umuman olganda, tahlil natijalari rag'batlantirish motivatsiyani faqat yaratibgina qolmay, balki uni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jarayoni ekanligini tasdiqlaydi. Samarali rag'batlantirish tizimi tashkilotning ichki muhitini mustahkamlash, xodimlar salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish va tashkilotning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, tashkilotlarda rag'batlantirish tizimini takomillashtirish inson omiliga yo'naltirilgan boshqaruvni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Shu munosabat bilan, rag'batlantirish jarayonini faqat moddiy mukofotlash bilan cheklamasdan, xodimlarning ma'naviy va kasbiy ehtiyojlarini ham qamrab oladigan kompleks tizim sifatida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, xodimlarning mehnatini e'tirof etish, ularning tashabbus va ijodkorligini qo'llab-quvvatlash hamda kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish motivatsiyaning barqarorligini ta'minlaydi.

Shuningdek, rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishda xodimlarning individual xususiyatlari, malaka darajasi va shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olish zarur. Moslashuvchan va adolatli rag'batlantirish tizimi xodimlar o'rtasida ishonch muhitini shakllantirib, jamoaviy hamkorlikni mustahkamlaydi. Bu esa tashkilot ichki muhitining sog'lomlashuviga va boshqaruv samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rag'batlantirish motivatsiyani shakllantirish, uni qo'llab-quvvatlash va uzluksiz rivojlantirish jarayoni sifatida zamonaviy menejment tizimining ajralmas hamda muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti va kuchli raqobat sharoitida tashkilotlar faoliyatining samaradorligi nafaqat moddiy resurslar yoki texnologik imkoniyatlarga, balki xodimlarning ichki motivatsiyasi, kasbiy faolligi va tashabbuskorligiga ham bevosita bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, puxta o'ylangan va tizimli ravishda joriy etilgan rag'batlantirish mexanizmlari tashkilotning barqaror rivojlanishida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Samarali rag'batlantirish tizimi xodimlarning mehnat faoliyatiga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiribgina qolmay, balki ularning kasbiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga ham xizmat qiladi. Moddiy va nomoddiy rag'batlantirish vositalarining uyg'unligi xodimlarda mas'uliyat, sadoqat va tashkilot maqsadlariga daxldorlik hissini kuchaytiradi. Natijada xodimlar o'z vazifalarini faqat topshiriq sifatida emas, balki shaxsiy rivojlanish va umumiy muvaffaqiyatning muhim qismi sifatida qabul qila boshlaydilar.

Shuningdek, rag'batlantirishning uzluksiz va adolatli amalga oshirilishi tashkilot ichida sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantiradi, jamoaviy hamkorlikni mustahkamlaydi va kadrlar almashinuvini kamaytiradi. Bu esa mehnat unumdorligining oshishiga, innovatsion faollikning kuchayishiga va tashkilotning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Tashkilotlarda rag'batlantirish tizimini ishlab chiqishda moddiy va nomoddiy rag'batlantirish vositalarini uyg'unlashtirish zarur.
2. Xodimlarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va malaka darajasini inobatga olgan holda moslashuvchan rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.
3. Xodimlarning mehnatini muntazam e'tirof etish, ularning tashabbuskorligi va ijodkorligini qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish lozim.
4. Kasbiy rivojlanish, malaka oshirish va martaba o'sishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish orqali xodimlarning uzoq muddatli motivatsiyasini ta'minlash mumkin.



5. Rag'batlantirish tizimida adolat tamoyiliga amal qilish, barcha xodimlar uchun teng va shaffof sharoit yaratish zarur.

6. Tashkilotlarda sog'lom psixologik muhitni shakllantirish va jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish tavsiya etiladi.

Shu bois, har bir tashkilot o'z rivojlanish strategiyasida rag'batlantirish masalasiga ustuvor yo'nalish sifatida yondashib, uni zamonaviy menejment talablari hamda xodimlarning real ehtiyojlariga mos ravishda muntazam takomillashtirib borishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.03.2021-yildagi " 2021 — 2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 166-sonli qarori <https://lex.uz/en/docs/-5348948>
2. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. — Xalq so'zi, 2020-yil 26-yanvar.
3. Musayeva, S. A. (2022). Professor of Samarkand Institute of Economics and Service, Samarkand, Uzbekistan. Formation of Psychology and Pedagogy as Interdisciplinary Sciences, 1(9), 20–23.
4. Musayeva, S., & Usmanov, F. (2022). Ways to Develop Marketing Activities in Tourist Organizations. Science and Innovation, 1(A5), 84–88.
5. Musayeva, S. A., Usmanova, D. I., & Usmonov, F. Sh. (2022). Issues of Improving Productivity Competition in Agriculture. Ijtimoiy Fanlarda Innovatsiya Onlayn Ilmiy Jurnali, 51–53.
6. Musayeva, S. A., Usmanova, D. I., & Usmonov, F. Sh. (2022). The Role of Marketing in Increasing the Economic Efficiency of Service Enterprises.
7. Musayeva, S. A., Usmanova, D. I., & Usmonov, F. Sh. (2022). The Concept of a Correct Marketing Policy in Trade and Service Enterprises.
8. Musayeva, S. (2022). Studying the Organization of Advertising Activities of Goods at Samarkand Tea Packaging Factory JSC. Science and Innovation, 1(A6), 185–192.
9. Musayeva, S. (2022). Prospects for the Development of "Stekloplastik" LLC Activity in the Conditions of the Market Economy. Science and Innovation, 1(A6), 539–546.
10. Musayeva, S. A., Usmanova, D. I., & Usmonov, F. Sh. (2022). Importance and Characteristics of Brand Choice in Services. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 1–3.
11. Musayeva, Sh. A. Marketing tadqiqotlari. Darslik. — Samarqand: "STAR-SEL" MChJ nashriyot va ijodiy bo'limi, 2023.
12. Musayeva, Sh. A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasi. O'quv qo'llanma. — Samarqand: "Mahorat" nashriyoti, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>